



ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20-martdagি 76-son buyrug'i hamda Buxoro davlat universiteti rektorining 2024-yil 20-maydagи "Ilmiy-amaliy anjuman o'tkazish to'g'risida" gi 340-U sonli buyrug'i ijrosinи таъминлаш мақсадида 2024 yil 24 may kuni Buxoro davlat universitetida "ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI" mavzusida Ilmiy-amaliy anjuman o'tkazilmoqda. Anjumanning maqsadi - mamlakatimizda ta'lif-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lif sifatini oshirish, pedagogik ta'lif sohasida ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta'lif infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda Respublikada ushbu sohada erishilgan ilmiy natijalarni amaliyatga tatbiq qilish hisoblanadi.

Ushbu ilmiy to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Pedagogika masalalari bilan qiziquvchilar, pedagoglar, magistrantlar va talaba yoshlarga mo'ljallangan

Taqrizchilar:

B.R.Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor, G.T. Boymurodova, pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Sh.Sh.Olimov, N.N.Musayeva, Sh.X.Samiyeva, O.R.Ortiqov. Maqolalarni to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Pedagogika kafedrasи dotsenti B.T.Jo'rayev.

Ilmiy anjumanning dasturiy qo'mitasi

1. O.X.Xamidov
 2. T.H.Rasulov
 3. B.R.Adizov
 4. Sh.Sh.Olimov
 5. M.A.Jumaeva
 6. F.N.Nurulloev
- Universitet rektori, i.f.d., professor, rais;
 - Ilmiy ishlар va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
 - BuxDU huzuridagi PKQT MO mintaqaviy markaz direktori, p.f.d., professor, a'zo;
 - Pedagogika kafedrasи mudiri , p.f.d., professor, a'zo;
 - Pedagogika kafedrasи dotsenti, p.f.f.d.(PhD), kotib;
 - Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, a'zo;

Ilmiy anjumanning tashkiliy qo'mitasi

1. T.H.Rasulov
 2. Sh.Sh.Olimov
 3. O'.U.Rashidov
 4. F.N.Nurulloev
 5. A.Sh.Inoyatov
 6. N.N.Musaeva
 7. N.E.Azimova
 8. B.T.Juraev
 9. O.R.Ortiqov
 10. M.N. Amonov
- Ilmiy ishlар va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais;
 - Pedagogika kafedrasи mudiri, p.f.d., professor, rais muovini;
 - Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, a'zo;
 - Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, a'zo;
 - Sport faoliyati va pedagogika fakulteti dekani, a'zo
 - Pedagogika kafedrasи professori, p.f.d., a'zo
 - Pedagogika kafedrasи professori, p.f.n., a'zo
 - Pedagogika kafedrasи dotsenti, a'zo;
 - Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi, a'zo;
 - Sport faoliyati va pedagogika fakulteti dekan muovini, a'zo

Zamonaviy sharoitda oliv ta'lim pedagogikasi: nazariya va amaliyat integratsiyasi

ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyobi yanada ortadi;
ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtini tejash imkoniyatiga erishish;
o'qituvchi sinfda bo'lishi shart emas;
oligan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddatsaqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniga erishiladi.

Interfaol multimedia vositalari asosida fanlarni o'qitish ma'lum bir miqdorda ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlash muammosini hal qilish mumkin. Interfaol multimedia o'quv kurslarida o'quv materiallarini to'ldiruvchi va uning qabul qilish darajasini oshiruvchi ko'rgazmali vositalari alohida ko'rgazmali jadvallar, grafik sxemalar, rasmlar va hokozalardan iborat bo'lgan slaydlar, ovozli va harakatli videofilmlar va boshqa shunga o'xshash ko'rgazmali nazariy va amaliy animatsion materiallar orqali tasvirlanilishi mumkin.

Interfaol multimedya vositalari o'rganilayotgan mavzu to'g'risidagi har bir axborotni harakatli, ovozli va videoli ko'rinishlarda bayon qilib berish va katta hajmdagi axborotni uzatish uchun ketadigan vaqtini tejash bilan birga, ularni yangi axborotlarni qabul qilish va ulardan amaliy foydalanish darajasini oshiradi.

Interfaol multimedya vositalari orqali o'qitish o'quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamda tizimga keltirishga ko'maklashadi, ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkonini beradi. Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni uzatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabrdagi O'RQ-637 son
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017 . 229-230 бетлар.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzlusiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-sod Qarori
4. Allaberganova M.X. Informatikadan interaktiv o'quv majmular yaratish va ularidan ta'lim jarayonida foydalanish. P.f.n. darajasini olish uchun dis. avtoreferati - Toshkent: MCHJ “Fan va ta'lim poligraf”. - 2012 y.-22 b.
5. Suyarov A.M. Ta'lim tizimida interfaol multimedia vositalaridan foydalanishning imkonoyatlari Международный научный журнал № 7 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» февраль, 2023 г
- 6.Umurova M. Y. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarmi maktab ta'limiga moslashtirish metod, vosita va usullari //Ekonomika i sotsium. – 2021. – №. 12-1 (91). – S. 639-642.
- 7.Umurova M. Yo. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – №. 22-2. – S. 24-26.

TOLERANTLIK PSIXOSOMATIKA NUQTAI NAZARIDA

**O.O.Xonzafarov,
BuXDU Pedagogika va psixologiya 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: B.T.Jurayev,
BuxDU pedagogika kafedrasi dotsenti**

Dunyoda qadimdan ko'plab xalqlar birgalikda istiqomat qilib keladi. Har bir millatning o'z tili, dini, an'analari, urf-odatlari, qadriyatları, xulq-atvori va fikr-mulohazalari mavjud. Endi savol tug'iladi. Agar, birgalikda yashayotgan xalaqlar bir-birining dini, tili, urf-odatlarini va boshqalarni yoki boshqa bir millatdoshining qarashlari, fikri, dunyoqarashini qabul qilmasachi?

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

Bu savol quyidagi boshqa savollarni keltirib chiqaradi: Bunday mamlakatning rivojlanishi bo'ladimi? Bunday mamlakat hududida ichki tinchlik bo'ladimi? Va bu mamlakatda ruxan va jismonan sog'lom bo'lgan, ma'nан yetuk bo'lgan, iqtidorli, hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan, barkamol shaxslarni tarbiyalay olamizmi?

Bu savollarga bitta javob bo'lishi mumkin, u ham bo'lsa "Yo'q". Bu muammolarga bitta yechim bo'lishi mumkin, bu "Tolerantlik".

Tolerantlik lotinchadan olingan bo'lib "sabr-toqat", "bag'rikenglik" degan ma'nolarni anglatadi. O'zgalarning xulq-atvori, turmush tarzi, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, dini, tili, millatiga nisbatan toqatli bo'lishdir. Tolerantlik – o'zgalarning urf-odatlari, qadriyatlar, an'analari, qarashlari, g'oyalari, odatlariga nisbatan sabr-toqatli bo'lish. Ya'ni bag'rikenglik boshqalarni hurmat qilish, ularni boricha qabul qilish. Bu dunyoda har bir inson individual va har bir inson boshqa insonlarni boricha qabul qilishi lozim. Bu dunyodagi barcha manlakatlarning qonun hujjalarda o'z aksini topgan. Har bir inson millati, tili, dinidan qatiy nazar teng huquqli.

Psixasamatika sohasida faoliyat olib borgan Valeriy Sinelnikov o'zining "Dardingni sev" kitobida tolerantlikning shakllanmaganligi, boshqa millat yoki boshqa insonlarga nisbatan salbiy munosabatlar turli xildagi kasallikkarni keltirib chiqarishini yozgan. Masalan:

Doimiy boshqa millat vakillari yoki boshqa shaxslarni tanqid qiladigan, ular ustidan doimiy shikoyat qiladigan, ularga nisbatan norozi kayfiyatda yuradigan odamlar bo'gimlar va tomoq og'rig'iga duchor bo'ladi. Revmatizm bunday odamlarning asosiy kasalligi hisoblanadi.

Boshqa odamlarni yoqtirmaslik, hazar qilish insonda quyidagi og'ir kasallikkarni keltirib chiqaradi: Onkologiya(turli xildagi o'simtalar),teri kasallikkari,psoriaz (yuqmaydigan surunkali teri kasalligi),ichkilikbozlik,nashavandlik,oshqozon yarasi.

Ushbu kasallikkarning barchasi insonlarni boricha qabul qila olmaslik naijasidir. Ularni yoqtirmaslik va ulardan hazar qilish insonning o'z-o'zini yo'q qilish programmasini harakarga keltiradi. Bu jarayonning salbiy oqibatlari inson tanasidagi turli o'simtalarda, uning terisida, oshqozonida, turli xil vositalarga bog'lanib qolishida namoyon bo'ladi. Agarda bu jarayon xomilador ayolda kuzatilsa, bu uning o'ziga ham, farzandiga ham ta'sir qiladi. Bolaning yuqorida ko'rsatilgan kasallikkilar bilan tug'ilishi yoki nobud bo'lish ehtimoli juda yuqori.

Boshqa millat vakillari yoki insonlarga nisbatan kuchli nafratning bo'lishi insonda quyidagi kasallikkarni keltirib chiqaradi: Epilepsiya (Tutqanoq),parkinson kasalligi,bosh jaroxati yoki boshqa kasallikklar,migren,ko'z kasallikkari,turli xildagi o'smalar,falajlik,og'ir teri kasallikkari.

Nafrat – bu yomon ko'rishning oxirgi darajasi. Nafrat insondagi eng yomon tuyg'u. Nafrat bu qotillik. O'zgalarga nisbatan emas insonning o'ziga qaratilgan qotillik. Ushbu tuyg'u insonni ich-ichidan yemiradi, barcha boshqa kasallikklar, salbiy va ijobjiy tuyg'ularga ta'sir ko'rsatadi, sekin asta portlab yo'q qiladigan bomba. Nafrat qanchalik kuchli bo'lsa kasallik shunchalik og'ir bo'ladi.

Turli sabablarga ko'ra erkaklardan nafratlanadigan ayol yoki ayollardan nafratlanadigan erkaklar juda kata ehtimol bilan bepushtlikka chalinadi. "Seni yomon ko'raman", "Seni ko'zim ko'rmasin", "Seni ko'rishni istamayman" kabi gaplar bilan o'z nafratiga zeb beradigan odamlar turli xildagi ko'z kasallikkliga chalinishadi. Xulosa qilib aytganda o'z istaklariga erishishadi. Ya'ni: o'sha odamlarni (narsalarni) va atrofidagi dunyonni ko'rishdan mahrum bo'lishadi.

Yuqoridagi kasallikkarning barchasi ota-onadan farzandga o'tib, jismonanan zaif bolalarni paydo qiladi.

Bu mavzuda o'z fikrini bayon qilgan Artem Tolokonin tolerantlikning shakllanmaganligi jamiyatda doimiy konfliktlarning vujudga kelishini va uning natijasida turli xildagi kasallikklar kelib chiqishini takidlaydi. Bularga misol qilib quyidagi kasallikkarni aytib o'tgan: Turli og'ir teri kasallikkari, har xil allergik kasallikklar, og'ir oshqazon-ichak kasallikkari, hazm qilish va ayirish sohasidagi kasallikklar, suyak, muskul va bo'g'im kasallikkari, qon aylanish sistemasining buzilishi, ko'rish sistemasiga ziyon yetishi, qandli diabet kasalligi, depressiyaga tushish, uyquning buzilishi, nevroz kasallikkari, ortiqcha vazn bilan bog'liq kasallikklar.

Zamonaviy sharoitda oliv ta'lim pedagogikasi: nazariya va amaliyot integratsiyasi

Hozirgi davrda insonlarda eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri qandli diabet. Bu kasallik bilan og'riydigan odamlar janjallahishga va konfliktlarni keltirib chiqarishga moyil bo'ladi. Konfliktlar nafrat tuyg'usiga yo'l ochib beradi. Konflikt natijasida vujudga keladigan bosim insonning terisiga, muskullariga, suyaklariga ulardan o'tib oshqozoni, ichaklari, hazm qilish va ayirish sohasi, immunitetiga og'ir zarba beradi. Albatta, odamlar buni birdaniga his qilmaydi. Konfliktning natijasi kasallikning ilk ko'rinishlari namoyon bo'lganda va agar oldi olinmasa kasallik o'zining eng yuqori darajasiga yetganda bilinadi.

Bundan shuni anglash mumkinki tolerantlikning shakllanmaganligi jamiyatda nafaqat notinchlik, rivojlanishdan ortda qolishga balki nosog'lom jamiyatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan ham tolerantlikni insonlarda shakllantirish asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ham ruxan, ham jismonan nosog'lom jamiyat bilan rivojlanib bo'lmaydi. Buning uchun eng avvalo jamiyatni sog'lomlashtirish zaruz. Bag'rikeng millatni shakllantirish oiladan, maktab ostonasidan bolalarga to'g'ri tarbiya berishdan boshlanadi.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati:

1. Jamoldinova O.R. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlanirishda uzviylik va uzuksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan. dok. – T., 2015.
2. Valeriy Sinelnikov Dardingni sev kitobi. – T.: "Navro'z" nashriyoti 2019.
3. Artem Tolokonin Punkticheskaya psichosomatika. – T.: Moscow 2021.
4. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma'naviyat, 2007.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA HISOB MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Azimova Umida Latipovna,

Buxoro shahar 20-son umumta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi, "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni sohibasi

Annotatsiya: Maqolada ta'lim texnologiyalari va 4K modeliga asoslangan interfaol metodlarning o'quvchilarning og'zaki va yozma hisob malakalarini rivojlanirishdagi ahamiyati, darsda o'quvchilar faolligini oshirib ular orasida do'stona muhitni yuzaga keltiruvchi omil ekanligi, ularning komil inson bo'lib yetishishlarida hayotiy ko'nikma va axloqiy sifatlarning shakllantirishdagi o'rni va mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: 4K modeli, innovatsion metodlar, interfaol, "Tengini top", "Hozirjavob qalpoqchalar" metodi, kreativlik, kritik fikrlash, kommunikativlik, Kenguru, TIMS.

O'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash azal- azaldan milliy pedagogikamiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Bu mas'uliyatni ado etish esa birinchi navbatda boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga yuklangan. Barchamizga ayonki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbining chin fidoyisi, bilimdoni, jonkuyar, ijodkor ustoz bo'lsagina, Vatanimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod ta'lim- tarbiyasining poydevori pishiqlari mustahkam bo'ladi.

Poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa, imoratning umri shunchalik uzun bo'lganidek, o'quvchilarga 1-sinfdayoq puxta bilim berilsa, shu o'quvchi keyinchalik har qanday murakkab dasturlarni qynalmay o'zlashtira oladi. Buning uchun shu poydevorni yaratuvchisi ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchisi tinmay o'z ustida ishlashi, izlanishi kerak bo'ladi. Boshlang'ich ta'limning muhim jihatlaridan biri o'quvchilarda og'zaki hisoblash malakalarini shakllantirishdan iborat.

Hammamizga ma'lumki, 2023-2024- o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun 4 K modeliga asoslangan matematika fanidan yangi, avvalgiga qaraganda bir muncha murakkab mavzularni o'z ichiga olgan darslik joriy qilindi. Lekin, biz bilamizki, o'quvchilarning hammasi ham iqtidorli emas. Bu darslikda berilgan materiallarni sinfdagi barcha o'quvchilar birdek o'zlashtira olishmaydi. Darslikdan o'rinn olgan murakkab

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

Berdiyeva Ro'zixol Allayorovna, OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI	191
Beknazarova Dilafruz Amirovna, TALABALARING MUSTAQIL VA IJODIY ISHLARINI TASHKIL ETISH SHART-SHAROITLARI VA IMKONIYATLARI	193
M.N.Amonov, MUSTAQIL TA'LIM OLISH VA O'ZINI O'ZI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	196

4-ШЎЬБА: УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ҲАМКОРЛИГИНИ

РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 199

Копнова Н. В. К ВОПРОСУ МОДЕЛИ САМОУПРАВЛЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В УСЛОВИЯХ УЧРЕЖДЕНИЙ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	199
Исроилова Мукаддас Шониёр кизи, Рыбакова Елена Владимировна. АСПЕКТЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ-БИЛИНГВОВ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧЕВОЙ ФУНКЦИИ	202
Alimov Alisher Yarashevich, UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI HAMKORLIGI MATEMATIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILIDIR.....	209
Aslanova Nozima Khakimovna. THE TECHNOLOGY OF APPLYING THE "4 K" MODEL IN PRIMARY EDUCATION	211
Eliboyeva Lola Suleymanovna. BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR MAZMUNI.....	214
Коннова В.Д., Рыбакова Елена Владимировна. РИСОВАНИЕ ПОД ДИКТОВКУ КАК КОМПОНЕНТ САМОБЫТНОГО РАЗВИТИЯ РЕБЁНКА.....	217
Jabborova O'g'iloy G'ani qizi, M.Yo.Umurova. TARBIYA FANINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI.....	219
O.O.Xonzafarov, B.T.Jurayev. TOLERANTLIK PSIXOSOMATIKA NUQTAI NAZARIDA	221
Azimova Umida Latipovna, BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA HISOB MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI	223
Ashurova Dildora G'afurovna, TIL O'RGANISHDA SAMARALI STRATEGIYALAR VA HAMKORLIKDA O'RGANISHNING AHAMIYATI	226
Bozorova Nozigul Ramazonovna, BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING KASBIY EHTIYOJLARI VA KASBIY MAHORATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI	229
Dilrabo Fayzulloyeva Rahmonovna, BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI	234
Jumaeva Khanifa Gaforovna, WAYS TO DETERMINE TALENTED CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION	236
Murodova M.M. BOSHLANG'ICH SINFLARIDA MATEMATIKA DARSALARINI INTEGRASIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH	240
Mustafoyeva Dilnoza, BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA O'RGATISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARINING O'RNI	242
Ostonova Umida Usmonovna, AQLI ZAIF MAKTAB O'QUVCHILARINING RIVOJLANISHIDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	244
D.J.Qo'chqorova, AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA JONDOR TUMAN TARIXINI O'RGANISHGA OID ASARLARNI GEOGRAFIK TAHLIL QILISH	246
M.M.Rashidova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA "LOYIHA ISHI "INTERFAOL USULI ASOSIDA ONA TILI DARSALARINI TASHKIL ETISH METODIKASI	248
Raxmonova Dilfuza Maxmudovna, MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIL OTI TARBIYALANUVCHILARINING IQTIDORINI	250
Sayitnazarova G. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI.....	252